
Viloyat hokimi tomonidan ilgari surilgan xayrli tashabbus qo'llab-quvvatlanmoqda

Kecha viloyat hokimi Xayrullo Bozorov Farg'ona shahridagi "BS Textile" MChJ va Qirguli massivi hududida faoliyat olib borayotgan "Ferghana uniform" MChJ korxonalariga tashrif buyurganligi haqida xabar bergan edik.

Korxonalar rahbarlari viloyat hokimi bilan muloqotda kengayib borayotgan ishlab chiqarish uchun malakali ishchi xodimlar yetishmasligi masalasida amaliy yordam so'radilar. Xayrullo Bozorov shahardagi mahallalarda ishsiz bo'lgan aholi vakillari uchun ushbu korxonalar qoshida o'quv jarayonlarini amaliyot bilan bog'lagan holda kasb-hunarga o'qitish kurslari tashkil etish bo'yicha viloyat hokimining sohaga mas'ul o'rinbosarlariga, shahar hokimligiga hamda viloyat Bandlik bosh boshqarmasi rahbariga vazifa yuklangandi. O'quv kurslarini tamomlaganlar yaxshi haq to'lanadigan doimiy ish o'rni bilan ta'minlanishi ta'kidlangan edi.

Bugun shahar hokimligining majlislar zalida mahallalarda faoliyat olib borayotgan hokim yordamchilari va xotin-qizlar faollari ishtirokida yig'ilish o'tkazildi. Unda shahar hokimi Vosiljon Nazarov, viloyat hokimi o'rinbosari Komilaxon Kavlonova, mahallabay ishlash va tadbirkorlikni rivojlantirish agentligining viloyat hududiy boshqarmasi boshlig'i Anvarjon Abdullaev, mas'ul boshqarmalar vakillari va shahar hokimi o'rinbosarlari tomonidan belgilab olingan chora-tadbirlar yuzasidan tushunchalar berildi.

Yig'ilishda "BS Textile" MChJ, "Ferghana uniform" MChJ, "CONSTANT TRADING" qo'shma korxonasi, "Yagona stil" MChJ va "Union group" MChJ korxonalarining rahbar va mas'ul xodimlari tomonidan ham ishchi xodimlari uchun yaratilgan shart-sharoitlar hamda ish haqqilarining miqdori hamda boshqa qulayliklar haqida batafsil ma'lumotlar berildi.

Farg'ona shahar aholi bandligiga ko'maklashish markazi tomonidan har bir korxonalar qoshida o'quv kurslarini tashkil etiladi. Mahalla fuqarolar yig'inlarida faoliyat olib borayotgan hokim yordamchilari va xotin-qizlar faollariga ishsiz bo'lgan fuqarolarni korxonalar qoshida tashkil etiladigan o'quv kurslariga jalb etish, kafolatli ish bilan ta'minlash choralarini ko'rish vazifalari topshirildi.

Yig'ilish ishtirokchilari viloyat hokimi tomonidan ilgari surilgan xayrli tashabbusni qo'llab-quvvatladilar hamda tez orada mazkur korxonalar Farg'ona shaharlik ishsiz fuqarolar jalb etilishiga barcha birdek harakat qilishga kelishib oldilar.

Farg'ona shahar hokimligi Axborot xizmati

2022-09-22 17:52:56